
SAYLOVOLDI DASTURLARI ZO'RU...

Shu kunlarda tumandan tortib barcha hokimiyat vakillik organlariga saylovlar juda qizg'in pallaga kirdi.

Nomzodlar saylovchilar bilan uchrashuvlar o'tkazishmoqda. Uchrashuvlarda ishtirok etib, odamlarning siyosiy faolligi ortib borayotganligini kuzatish mumkin. Nomzodlarning dasturlarini tinglab, ular juda katta va'dalarni berib yubormayaptilarmi, deb o'ylab qolamiz.

Mamlakat taraqqiyotining bundan keyingi besh yilligiga kafil bo'lib, xalqimiz orzu-umidlarining ro'yobi uchun maydonga chiqish ham oson emas. Nima bo'lganda ham, odamlar ishonchini qozonib, saylanib olganlar o'z okrugidagi vakillari bilan uchrashganda, agar shunga vaqt topsalar, va'dalari yolg'on bo'lib qolmasligini o'ylab ish tutsalar, deymiz.

Axir bunaqangi holatlar ko'p kuzatilgan-da.

Karomatxon MUHIDDINOVA,

Zulfizar QOSIMOVA,

Gulchehraxon ERGASHEVA,

6-umumta'lim maktabi o'qituvchilari

2019-12-20 11:25:49